

O'quv dasturi pasporti

O'quv dasturi uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 14-avgustdagi № UMO-140-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030-yilgacha.

Ta’lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra / bo’lim	Travmatologiya va ortopediya			
O’quv dasturi nomi	Travmatologiya va ortopediya ixtisoslashtirish			
O’qish turi	Umumiy malaka oshirish			
O’quv dasturi muallifi (mualliflari)	O’quv dasturi mualliflari: M. E. Irismetov, X. M. Karimov, A. R. Xoshimov, R. K. Qobilov, B. U. Xolmatov			
Siklning umumiy soati	504 kredit			
Siklda dars beradigan o’qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d., professor Irismetov M.E.	t.f.n., dotsent Karimov X.M.	t.f.n., assistent Xoshimov A.R.	Qobilov R.K	PhD. Xolmatov B.U.
Maqsad	Uzoq vaqt davomida faoliyat yuritmagan va turli sabablarga ko‘ra tibbiy amaliyotdan chetda qolgan travmatolog va ortopedlarning ixtisosligi hamda malakasini qayta tiklashga qaratilgan ushbu kurs, mazkur sohadagi jahon ilmiy yutuqlari va zamonaviy amaliyot asosida yangi professional bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, ilg‘or tibbiy texnikalar bilan tanishtirishni maqsad qiladi.			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent	Travmatolog va ortopedlar internatura, klinik ordinatura, magistratura yoxud birlamchi ixtisoslashtirish bo‘yicha kerakli xujjatlarga ega bo‘lganlar uchun mo‘ljallangan.			

Sikl vazifalari	Tinglovchilarda mushak-skelet tizimi shikastlanishlari va kasalliklarini aniq tashxislash, ularni kompleks baholash va samarali yechimlar ishlab chiqishda mantiqiy, tanqidiy hamda analitik yondashuvni rivojlantirish; Tinglovchilarni tayanch-harakat tizimi shikastlanish mexanizmi va kasallik patogenezigiga asoslangan holda konservativ va jarrohlik usulda davolash metodlarini chuqur o'zlashtirishda yondashish; Tinglovchilarda favqulodda va oddiy vaziyatlarda yuqori malakali birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish; Travmatologiya va ortopediya sohasida yangi paydo bo'layotgan ilg'or texnologiya va metodikalarni tinglovchilar orqali amaliyotga tatbiq etish va uni doimiy nazorat qilish, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni klinik jarayonga integratsiya qilish;
Sikl tarkibi	Mushak-skelet tizimining anatomik tuzilishi, biomexanikasi va funksional afzalliklarini chuqur bilishi, bu bilimlarni klinik tashxis va davolash jarayonida qo'llay olishi. Bemor umumiy va klinik holatini chuqur tahlil qilib, diagnostika va davolash protseduralarini milliy va xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirishi. O'z ixtisosligi doirasida kasalliklarni aniqlash va belgilangan protokollar asosida davolash usullarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi. Amaliy diagnostika va davolash usullarini real klinik sharoitlarda tezkor va samarali qo'llashi. Shaxsiy ish jarayonini samarali rejalashtirish, klinik ko'rsatkichlarni tahlil qilish va natijalarni monitoring qilishni. Tibbiy etika va professional deontologiya qoidalariga qat'iy rioya qilish hamda insonparvarlik prinsiplarini amalga

	oshirishni.
O‘qish bazalari 1. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. 	
	 